

**DEHQON XO‘JALIKLARINI MOLIVAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASH
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH****Mengniyozov Botirbek Jumayevich***Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti*

Annotatsiya. Maqolada qadimdan qishloq xo‘jaligi rivojlangan maskan hisoblangan mamlakatimizning bugungi saloxiyati va rivojlantirish yo‘nalishlari keltirilgan. Shunday yekan, qishloq xo‘jaligida mahsulot ishlab chiqarish jarayonining mavsumiy xarakterga ega yekanligi, er resurslarining unumdorlik darajasini saqlab turish ushbu sohani doimiy ravishda moliyaviy qo‘llab-quvvatlash zarurligini keltirib chiqaradi. Jahon er fondi bugungi kunda 13,4 mlrd.gektarni tashkil qiladi, uning atigi 1,5 mlrd.gektari, ya’ni 11 foiz qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi uchun iqtisodiy jihatdan qulay hisoblanadi.

Kalit so‘zlar. Fermer xo‘jaliklari, dehqon xo‘jaliklari, yer resurslari, samaradorlik, rentabellik ko‘rsatkichlari, moliyaviy ta’minot.

Аннотация. В статье представлено современное состояние и направления развития нашей страны, которая издревле считается местом развития сельского хозяйства. Поэтому сезонность производственного процесса в сельском хозяйстве, поддержание уровня производительности земельных ресурсов создает необходимость постоянной финансовой поддержки этой отрасли. «Сегодня мировой земельный фонд составляет 13,4 млрд га, из которых только 1,5 млрд га, то есть 11 процентов, экономически пригодны для производства сельскохозяйственной продукции».

Ключевые слова. Фермерские хозяйства, крестьянские (фермерские) хозяйства, земельные ресурсы, производительность, показатели рентабельности, финансовая поддержка.

Asosiy qism. Qishloq xo‘jaligi erlaridan samarali foydalanish, mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshishida kichik er egalari bo‘lgan aholi tomorqalarida yetishtirilgan mahsulot muhim rol’ o‘ynaydi.

Mamlakatimizda agrar sohani rivojlantirishga hukumatimiz tomonidan alohida e’tibor qaratilmoqda, bu borada 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berildi. Unda “...oxirgi yillarda yaratilgan imkoniyatlar tufayli yangi korxonalar paydo bo‘lyapti, tadbirkorlar yemin-erkin rivojlanyapti, qayta ishlash darajasi oshyapti. Klasterlar tuzib, erni egali qilganimiz uchun uning unumdorligi ham o‘zgarayapti. er unumli bo‘lsa, tadbirkorga oson bo‘ladi, mahsuloti amaliyot yekanligini hisobga olib,

ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tartiblarini, shu jumladan xarajatlarni subsidiyalash, er ajratish tartibini ko'rib chiqish hamda kreditlash tizimini soddalashtirish lozim".

Qishloq xo'jaligini moliyalashda kredit munosabatlari kapitalizmdan oldingi davrlarda ham mavjud bo'lgan. U davrda mayda er egalari, ya'ni tomorqa xo'jaliklari mahsulot ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash maqsadida sudxo'rlik kreditlaridan foydalanganliklari to'g'risida tarixiy ma'lumotlarni uchratish mumkin.

Hozirgi davr iqtisodiy adabiyotlarida ham qishloq xo'jaligini kreditlash zarurligi, kreditning mahsulot yetishtirish jarayonlaridagi roli to'g'risida fikr va mulohazalar mavjud. Biz ularning barchasini inobatga olgan holda qishloq xo'jaligida moliyaviy qo'llab-quvvatlash munosabatlarining muqarrarligini e'tirof yetib, iqtisodiyot taraqqiyotining turli bosqichlarida qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmining doimiy ravishda rivojlanib, takomillashib borishini e'tirof yetmoqchimiz.

Iqtisodiy adabiyotlarda "moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmi" va "moliyalash mexanizmi" kabi tushunchalar mavjud bo'lib, ularning mohiyati va bir-biridan farqi to'g'risida mulohazalar bildirilgan. Biz bu ikki tushunchaning bir-biridan farqi borligini "moliyalash mexanizmi", "moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmi" ning asosiy yelementlaridan biri yekanaligini to'liq e'tirof yetgan holda, ilmiy izlanishimizning maqsadiga muvofiq aholi tomorqa xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmi ustida to'xtalib o'tishni lozim topdik.

"Moliyalash mexanizmi" termini ishlatilganda ko'z oldimizga birinchi keladigan tushuncha kreditlash mexanizmi bo'lib hisoblanadi. Buning muhim tomoni shundaki, "moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmi" kengroq tushuncha bo'lib, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarni kreditlashdan tashqari, iqtisodiy xarakterga ega bo'lgan soliqlar orqali qo'llab-quvvatlash, bojxona bojlari orqali qo'llab-quvvatlash, sug'urta to'lovlari orqali qo'llab-quvvatlash, byudjet mablag'lari va jamg'arma mablag'lari, xorijiy-moliyaviy institutlar mablag'lari orqali qo'llab-quvvatlash mexanizmlari tushiniladi.

Aholi tomorqalaridan foydalanishni qo'llab-quvvatlashda iqtisodiy siyosatning ajralmas qismi bo'lgan soliq siyosati orqali ta'sir qilish yeng samarali usullardan biri hisoblanadi. Soliqlardan beriladigan imtiyozlar yaratiladigan mahsulot tannarxiga bevosita ta'sir ko'rsatib, bozorlarimizni arzon va sifatli mahsulot bilan to'ldirishga xizmat qiladi. Aholining erga bo'lgan munosabatini o'zgartirishga yaqindan yordam beradi.


Xorijiy davlatlarda qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash darajasi va ajratiladigan mablag'lar miqdori mamlakatda yaratiladigan YAIM hajmiga bog'liq. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari qancha ko'proq islab chiqarilsa qishloq xo'jaligiga ajratiladigan subsidiya miqdori shuncha oshib boraveradi.

Mamlakatda olib boriladigan pul-kredit siyosati aholini arzon va zaruriy mablag' bilan ta'minlash imkonini beradi. Tijorat banklari orqali beriladigan kreditlarning foiz stavkasining past yoki yuqoriligi, kreditlash mexanizmining qay darajada yo'lga qo'yilganligi tomorqa xo'jaligi rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Kredit foiz stavkasining yuqoriligi mahsulot tannarxining oshishiga olib keladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari tannarxining yuqoriligi aholining xarid qobiliyatini pasaytirish bilan birga aholining o'rtacha daromadi va jamg'armasining kamayishiga olib keladi.

Ushbu rasmda aks yetgan bevosita qo'llab-quvvatlash shakllariga qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni moddiy texnik resurslar uchun byudjetdan ajratiladigan subsidiyalar, kredit foiz stavkalarini ma'lum bir qismini qoplash uchun subsidiyalar, sug'urta xarajatlarni qoplash uchun davlat byudjetidan ajratiladigan subsidiyalar yeng samarali usul hisoblanadi. Bu usul xorijiy malakatlar iqtisodiyotida uzoq muddat foydalanilgan va amaliyotda keng qo'llanilib kelingan.

Bilvosita shakllariga tijorat banklari kreditlari, soliq imtiyozlari, bojxona to'lovlari uchun imtiyozlar, ko'rsatiladigan sug'urta xizmatlari, davlat yehtiyoji uchun sotib olingan mahsulotlar, tashqi bozorda mahalliy ishlab chiqaruvchilar manfaatini himoya qilish kabi iqtisodiy vositalarni qo'llash kiradi.

Amaliyotda keng uchrab turadigan ta'sir qilish usullaridan biri vositachilar orqali ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash hisoblanadi. Bunda tomorqa er egalarini qo'llab-quvvatlovchi jamg'armalar, sohaga oid davlat dasturlarini ishlab chiqish, xodimlarni o'qitish va qayta tayyorlash muassasalari, ixtisoslashtirilgan moliyaviy institutlar va hokazolar hisoblanadi. Aholi tomorqalaridan foydalanuvchilar kategoriyasini aniqlashtirish va ta'rifni shakllantirish lozim.



1.1-rasm. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash shakllari va usullari

O'zbekiston Respublikasining "Tomorqa xo'jaligi to'g'risida" gi Qonunida aholi tomorqa xo'jaligiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Tomorqa xo'jaligi-shaxsiy tomorqa er uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila yehtiyojlari uchun yetishtirish bilan bog'liq mehnat faoliyatidir". Ushbu ta'rifdan kelib chiqib, aholi tomorqalaridan foydalanuvchilar bo'lib, kadastr hujjatlarida aks yetgan shaxsiy er maydoniga ega, oila mehnatiga asoslangan, mahsulot ishlab chiqarish, qayta ishlash orqali o'z iste'molidan tashqari bozorga sotish uchun faoliyat yurituvchi jismoniy shaxslar tushiniladi. Ushbu tadqiqot ishida "Tomorqa xo'jaligi" va "Aholi tomorqasi" kategoriyalari bir xil mazmunni ifoda yetuvchi tushunchalar sifatida talqin yetiladi. Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda, umumiy ta'rif berishga harakat qildik: aholi tomorqalaridan foydalanishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash deganda — o'ziga tegishli bo'lgan qonuniy er maydonida mahsulot ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, sotish natijasida iqtisodiy va ijtimoiy samaraga erishish uchun zarur miqdordagi daromadni shaklantiruvchi jismoniy shaxslarga davlat tomonidan muayyan maqsadni ko'zlab (oziq-ovqat mahsulotlari hajmini ko'paytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish maqsadida) imtiyozlar taqdim qilish va

moliyaviy xarakterga ega resurslar bilan ta'minlashda yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmui tushiniladi.

Tomorqa er egalari xarajatlarini iqtisodiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy-uslubiy asoslari klassik iqtisodchi olimlar: A.Smit, D.Rikardo, F.Kene, A.Tyurgo, P.Dyupon, N.Turgenev, A.Staxnyuk, Rudoy, N.Burmistrov, S. Korotkova, Yu.Tkach, D.Kirichenko, N.Jaxov, S.Petuxova, V.Bondarenko, V.Zagshevskiy, D.Shishkina, Y.Shumpeter asarlarida va ilmiy ishlarida o'rganilgan.

Mahalliy iqtisodchi olimlar A.Altiyev, Shodmonov, A.Toshqulov, N.Jumayev, N.Qo'ziyeva, S.Xudoyqulov, A.Shomirov, J.Isakov, M.Yusupov, I.Alimardonov, M.Ismaylova, D.Murodova, N.Nurmatov, A.Avliyakov ilmiy ishlarida tomorqa er egalari xarajatlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish bevosita va bilvosita tadqiq qilingan.

Xususan, A.Smit er resurslaridan samarali foydalanishda kichik er egalari mahsulot ishlab chiqarishda yuqori samaradorlikka ega yekanligini o'z asarlarida ko'rsatib o'tadi. Uning fikricha, qishloq xo'jaligida yirik er egalari mahsulot ishlab chiqarish jarayonida yeng katta xarajatni ishchi kuchi sotib olishga sarflaydi. Qishloq xo'jaligida mahsulot realizatsiyasida ijtimoiy-zaruriy ish vaqti har doim ham e'tiborga olinmaydi. Tabiiy ofatlarning tez-tez ro'y berishi ko'zlangan mahsulot yetishtirishga imkon bermaydi.

D.Rikardo, F.Kene, A.Tyurgo, P.Dyuponlar qishloq xo'jaligidan olinadigan daromadlarni soliqqa tortishda tabaqalashgan usulda olib borish va mahsulot ishlab chiqaruvchilarni soliqlar orqali qo'llab-quvvatlash lozimligini tadqiq yetadi. Chunki, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda iqlim sharoiti hisobga olinishi, er unumdorligini oshirish va saqlab turish ortiqcha xarajat va mehnat talab yetishi, er resurslaridan oqilona va samarali foydalanishda doimiy ravishda mablag' talab yetishini o'zlarining tadqiqot ishlarida ta'kidlab o'tadi.

N.Burmistrovning fikriga ko'ra, oziq-ovqat sanoatida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari faoliyatini rivojlantirishda tomorqa er egalari faoliyatini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish muhim o'rin tutadi. Uning fikriga ko'ra, oziq-ovqat sanoati tarmoqlarini notekis rivojlanganligi, erga bo'lgan munosabatni o'zgarishiga sabab bo'ladi. Bunday yondashuv oziq-ovqat sanoti mahsulotlarining barcha turlari bo'yicha iste'mol va ishlab chiqarish o'rtasidagi mutanosiblikka erishish imkonini beradi.

Bu erda N. Burmistrov oziq-ovqat sanoti mahsulotlarining turlari iste'molining o'zgarishiga nisbatan ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish yelastikligidan kelib chiqqan holda moliyalashtirishni taklif qilayapti. Bu yesa, amaliy ahamiyat kasb yetadi. Talab ortgan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun yetarli darajada moliyalashtirish manbalari mavjud bo'lishi kerak.

S. Korotkova, Yu.Tkach o'z asarlarida qishloq xo'jaligi yeksportini kreditlash samaradorligini ta'minlashning zaruriy sharti bo'lib, tijorat banklari tomonidan yeksportni moliyalashtirish maqsadida berilgan kreditlarning foizini bir qismini davlat tomonidan qoplab berilishi (bonifikatsiya) hisoblanadi. Bu usul taraqqiy yetgan mamlakatlar iqtisodiyotida keng qo'llanilib kelinmoqda.

D.Kirichenkoning fikriga ko'ra, qishloq xo'jaligida kichik biznes subyektlarini soliqqa tortishning asosiy maqsadi bo'lib, ular faoliyatini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan nisbatan qulay muhit yaratish hisoblanadi, chunki, ushbu sektor iqtisodiyotning zaif tarmog'i sifatida qaraladi.

Taraqqiy yetgan mamlakatlarda soliq imtiyozlari qishloq xo'jaligida tomorqa er egalarini tartibga solishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, AQSHda fermerlarning ishlab chiqarishning ustuvor yo'nalishlariga investitsiya qilingan xarajatining 25 foizigacha bo'lgan qismi soliqdan ozod qilinadi, yevropa Ittifoqi mamlakatlarida yesa, fermerlarning soliq to'lovlarining bir qismi davlat byudjetidan qoplab beriladi.

E.Rudoy fikriga ko'ra, yendi ish boshlayotgan qishloq xo'jaligida kichik biznes subyektlarini moliyalashda asosiy e'tibor kreditlashning ijtimoiy samarasiga qaratilishi kerak. Tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy imkoniyatlari kengaygandan so'ng, ular bozor stavkalarida beriladigan kreditlarga bo'lgan talabning oshishiga sababchi bo'lishadi.

M.S.Petuxova qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash olib tashlansa, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ko'lami sezilarli darajada kamayishini matematik yo'l bilan isbotlab beradi. Uning hisob –kitobi bo'yicha sanoat mahsulotlari hajmi 1/2 nisbatda kamayishining asosiy sababi qishloq xo'jaligi sanoat tarmog'i uchun xom-ashyo ba'zasi rolini bajarishidadir.

N.V. Jaxov iqtisodiyotni tartibga solishda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi tomorqa er egalarini iqtisodiy vositalar orqali moliyaviy qo'llab-quvvatlashni bir vaqtning o'zida olib borish zarurligini ta'kidlaydi. Aks holda, oziq –ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi kamayib, narxlarning keskin oshishi va taqchillik vujudga kelishi lozimligini uqtiradi.

V.G.Zakshevskiy yesa qishloq xo'jaligi samradorligini intensiv usulda rivojlantirishda davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash lozimligi, sohaga yangi innovatsion texnologiyalarni olib kirish, er va suv resurslaridan tejab-tergab foydalanish zararligini ta'kidlaydi.

V.Bondarenko, D.Shishkinalar fikricha, tomorqa er egalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashda davlat xususiy sherikchilik asosida tashkil yetish davlat byudjetini tejash imkonini beradi. Fermer va dehqon xo'jaliklariga nodavlat tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlar, shu jumladan, yeksport kreditlarining foizini bir qismi davlat tomonidan bonifikatsiya qilinadi. Ammo, qichik ishlab chiqaruvchi hisoblangan

tomorqa er egalari faoliyatida bu amaliyotni qo'llash uchun yetarlicha shart sharoit yaratilmagan.

Avstriyalik iqtisodchi olim Y.Shumpeterning innovatsion jarayonlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash xususidagi g'oyasi tomorqa xo'jaligi subyektlari uchun ham muhim amaliy ahamiyat kasb yetadi. Y.Shumpeterning fikriga ko'ra, innovatsiya tadbirkorlik ruhi bilan yo'g'rilgan ishlab chiqarish omillarining yangi ilmiy-tashkiliy uyg'unligidir va davlat tomonidan innovatsion jarayonlar qo'llab-quvvatlanishi lozim. Buning sababi shundaki, tomorqa xo'jaligi subyektlari yirik er egalari subyektlaridan farqli o'laroq, innovatsion ishlanmalar uchun katta miqdorda mablag' sarflay olmaydi. Bir guruh taniqli iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlari natijalari ko'rsatadiki, taraqqiy yetgan mamlakatlarda kichik er egalari subyektlari aylanma mablag'larining 60 foizdan ortiq qismi taqsimlanmagan foyda hisobidan moliyalashtirilayotganligi sababli, ularning investitsion xarajatlarni moliyalashtirish imkoniyati juda cheklangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Malikov T. S., Haydarov N. H. Moliya: umumdavlat moliyasi. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2022, 566 bet.
2. Muxiddinov X. S. Hudud aholisi turmush darajasini oshirish va ijtimoiy rivojlanishini modellashtirish. Monografiya. T.: "FAN", 2023. 12 b.
3. Nizomiddin Haydarov. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari "Akademiya" nashriyoti –T., 2022,79 b.
4. Ostonaqulov M. Mahalliy byudjetlar g'azna ijrosining buxgalteriya hisobi. - T.: Iqtisod-moliya, 2022.- 88 b.